

AYRIM TARMOQLARNI JOYLASHTIRISHDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR VA ERKIN INDUSTRIAL-IQTISODIY ZONA

¹Eshqobilova Nargiza Mengnarovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
Raqamli iqtisodiyot kafedrasini o'qituvchisi
tel: +99890 245 36 76

Email: nargizaeshqobilova1@gmail.com,

²Humoyiddin Bahriddinovich Shokirov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti,

Iqtisodiyot yo'nalishi 2I-2021-guruh 2-bosqich talabasi
tel:+99833 027 77 76

Email: shokirovhumoyiddin@gmail.com.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7425968>

Annotatsiya. Hozirda mamlakatimiz iqtisodiyoti tobora yuksalib bormoqda. Buning natijasida rivojlangan mamlakat iqtisodiyotiga yetib olishimiz hech gap emas. Bunda ayrim sohalarni alohida etrof etsih lozim. Ushbu sohalarni maqola davomida ko'rib borasiz.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyot, , mamlakat iqtisodiyoti, iqtisodiy zona, industrial-iqtisodiy zona, erkin zona.

Erkin iqtisodiy zonalarda alohida xalqaro huquqiy status joriy etiladi. Lekin u qayerda joylashishidan qat'iy nazar, shu mamlakatning ajralmas bo'lagi hisoblanadi, barcha amaliyotlar (yer ajratish, firma va kompaniyalarni tashkil etish, chegaradan yuklarni, tovarlarni olib kirish va olib chiqish, boj to'lovlari, soliq to'lovlari bo'yicha imtiyozlar, qaysi valyuta yoki valyutalar to'lov vositasini o'tashi, hududni boshqarish tartibi va boshqalar) qabul qilingan qoidalar asosida tezkorlik bilan bajariladi. Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishdan maqsad ko'plab yangi texnologiya, investitsiyalarni jalb qilib, rivojlangan iqtisodiy makon yaratish va shu yo'l bilan mamlakat iqtisodiyotini tezkorlik bilan rivojlantirishdir.

Erkin iqtisodiy zonalarini hozirgi zamon iqtisodiy integratsiya jarayonlarining mahsuli, deb qarash unchalik to'g'ri emas. Uning tarixi juda ko'hna. Erkin iqtisodiy zonalarini tarixi milod boshlariga borib taqaladi. qadimiy finikiyaliklar, yunonlar va rimliklar savdo ishlarini rivojlantirish maqsadida chet el savdo kemalarining o'z portlariga erkin kirib-chiqishini va ularning xavfsizligini ta'minlaganlar. 16 va 17-asrlarda Yevropaning qator shaharlari o'zlarini "erkin savdo shaharlari" deb e'lon qilganlar. Buyuk Amir Temur davrida Samarqand ana shunday erkin savdo markazi bo'lgan, mamlakatning barcha karvon yo'llari hokimiyat himoyasiga olingan.

Erkin iqtisodiy zonalarining har xil turlari mavjud: erkin omborxonalar, erkin bojxonalar zonolari, ilmiytexnika zonolari. Ular AQShda texnoparklar, Yaponiyada texnopolislar deb ataladi. Shuningdek, maxsus iqtisodiy zonalar (asosan, eksportga ixtisoslashgan) ham mavjud. Dastlabki Erkin iqtisodiy zonalarilardan biri Irlandiyada “Shennon” aeroportida (1959) tashkil etilgan edi. Keyinroq shunday zona Angliyadagi “DogAylend” aeroportida paydo bo‘ldi. Ba’zi Erkin iqtisodiy zonalarilar ancha yirik hududlarda tashkil etiladi. Masalan Braziliyadagi Manaus, Xitoydagi maxsus iqtisodiy hudud “Shenjen” va boshqalar shunday zonalaridir. Jahon amaliyotida Erkin iqtisodiy zonalarilar rivojlangan (Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, AQSH va boshqalar), shuningdek, rivojlanayotgan (Braziliya, Koreya Respublikasi, Malayziya va boshqalar) mamlakatlarida ham tashkil etildi. Erkin iqtisodiy zonalariga chet el kapitalini jalb qilish Xitoy siyosatida ancha keng qo‘llanildi. 20-asr oxirlarida Erkin iqtisodiy zonalarilar Birlashgan Arab amirliklari, Rossiya va Polshada tashkil etildi. Rossiya va Xitoy hamkorligida tashkil etilgan Blyagovanichensk — Xeyxe, Qora dengiz bo‘yi, Kaliningrad viloyatidagi “Yantar” Erkin iqtisodiy zonalarilari ham shunday makonlardir. Hozir jahonda 600 dan ortiq Erkin iqtisodiy zonolari mavjud.

O‘zbekistonda Erkin iqtisodiy zonalarini g‘oyasi milliy iqtisodiyot taraqqiyoti uchun ijobiy baholandi. Shu bois 1996-yilning 25-aprelda mamlakat parlamenti O‘zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida” qonunini qabul qildi. Bu qonun chet el investitsiyalari, savdo va sanoat sohalarining rivojlanishi, aholini ish bilan ta‘minlashni yaxshilash uchun qulay sharoit yaratishga me‘yoriyhuquqiy asos yaratdi. Erkin iqtisodiy zonalarda loyihalar aniq hisob-kitoblarsiz joylashtirilishi oqibatida ayrim faoliyat turlari uchun sun‘iy imtiyoz berilishiga va bu, o‘z navbatida, bozordagi raqobat muhitining buzilishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda jahonda 4000 ta erkin iqtisodiy zona (400 ta erkin savdo zona, yana shuncha ilmiy-ishlab chiqarish parki, 300 dan ziyod eksport-ishlab chiqarish parki, 100 ta maxsus yo‘nalishdagi zona) faoliyat ko‘rsatyapti, deb yozadi “Biznes-Daily”.

Xitoydagi erkin iqtisodiy zonalar faoliyati

Statistika ma‘lumotlariga ko‘ra, bugun Xitoy iqtisodiyoti o‘sish sur‘atlari bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda bo‘lib, bunga jahondagi biznes munosabatlarni zudlik bilan o‘zgartira olganligi sababli erishgan. Arzon ish kuchi G‘arbda shippaklardan tortib mobil telefonlargacha bo‘lgan turli mahsulotlarning narxi arzonlashishiga sabab bo‘ldi. Qolaversa, Xitoy Afrikada eng yirik investorga aylandi, Pekin Yevropa yoki Amerikani emas, aynan “qora qit‘ani o‘zining asosiy hamkori hisoblaydi.

Hozir Xitoy tovarlarini dunyoning hamma joyida ko'rish mumkin, XXI asrga kelib u chindan ham "dunyo fabrikasi"ga aylana oldi. Jahondagi fotoapparatlarning 50%i, konditsionerlarning 30 foizi, kir yuvish mashinalarining 25 foizi va sovutgichlarning qariyb 20 foizi aynan shu yerda ishlab chiqarilyapti.

Alohida qayd etish lozimki, Xitoy taraqqiyotida erkin iqtisodiy zonalarning o'rni katta bo'lgan. Ayni paytda bu yerda to'rtta maxsus iqtisodiy zona faoliyat ko'rsatmoqda — Shenchjen, Chjuxay, Shantou va Syamen. Bundan tashqari, 14 ta erkin savdo zonasi, 53 ta yuqori va yangi texnologiyalar zonasi, xorijda tahsil olgan mutaxassislarga mo'ljallangan 70 dan ortiq ilmiy-texnik zona, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni qayta ishlaydigan 38 ta zona bor.

O'zbekistondagi erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini

O'zbekistonda ham mazkur sohada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 14 ta erkin iqtisodiy zona mavjud bo'lib, ulardan ayrimlarining faoliyati ancha jadallashgan. Xususan, "Navoiy", "Angren", "Jizzax", "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarida umumiy qiymati 486 million dollarga teng 62 loyiha amaliyotga tatbiq etilgan, qolaversa, 4 ming 600 dan ortiq ish o'rni yaratilgan.

Shuningdek, "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", "Bo'stonliq-farm", "Parkent-farm" singari farmatsevtika sohasiga ixtisoslashgan 7 yangi erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish bo'yicha ham barcha chora-tadbirlar ko'rilyapti.

Shu bilan birga, erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, xorijdan yuqori texnologik uskunarlar xarid qilish uchun O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'i hisobidan 100 million \$ miqdorida chet el valyutasidagi kredit liniyasi ochilgan. Bundan tashqari, kichik sanoat zonalaridagi direksiyalar kredit olish va bank xizmatlaridan foydalanishda har bir zonaga birlashtirilgan tijorat banklari bilan hamkorlikda ish olib borayotganligi ham muammolarni bartaraf etishda ayni muddao bo'lmoqda. Bozor talablari va import nomenklaturasini o'rganish asosida tadbirkorlar uchun takliflar, istiqbolli loyihalar ro'yxati shakllantirilgan. Imtiyozlardan yana biri shuki, kichik sanoat zonasida ishlaydigan subyektlar 2 yil barcha soliqlardan ozod etilgan. Shuningdek, bo'sh turgan yoki samarasiz faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish binolaridan unumli foydalanish, yangi korxonalar tashkil etishni rag'batlantirish maqsadida mazkur binolar negizida kichik sanoat zonalarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytgacha mamlakatimizda ularning soni 96 taga yetdi. Hozirgacha ushbu zonalarda umumiy qiymati 535 milliard so'mga teng 1021 loyiha amalga

oshirilgan, 9 ming 600 dan ziyod ish o'rnini yaratilgan. Loyihalar doirasida nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham xaridorgir bo'lgan yengil sanoat, kimyo, oziq-ovqat mahsulotlari, elektr texnikasi buyumlari, zamonaviy qurilish materiallari, mebel va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Bundan tashqari, kelgusida 248 loyihani amaliyotga tatbiq etilishi natijasida 11 ming yangi ish o'rnini yaratish rejalashtirilmoqda.

Erkin iqtisodiy zonalardagi muammolar va ularni qanday bartaraf etish yo'llari

Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: mazkur yo'nalishda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanilyaptimi? Agar kichik sanoat zonalarining sarmoyalarni jalb qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishdagi o'rnini tahlil qiladigan bo'lsak, ularda hamon tashabbuskorlik yetishmasligi, faoliyatni rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish darajasi sustligi ko'zga tashlanadi.

Ayniqsa, "Urgut", "Qo'qon", "G'ijduvon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini, shuningdek, farmatsevtika yo'nalishidagi erkin iqtisodiy hududlarda yangi korxonalar tashkil etish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish ishlari sust. Elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv va boshqa kommunikatsiya tarmoqlari bilan barqaror ta'minlashda ham muammolar kuzatilmoqda.

Mazkur hududlarda investor va tadbirkorlarga yanada keng imkoniyatlar yaratishga oid kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqishni davr taqozo qilmoqda. Avvalo, ushbu zonalarda faoliyatiga doir me'yoriy-huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish, zarur bo'lsa davr talablariga moslashtirish, barcha uchun ochiq va tushunarli mexanizm yaratish zarur. Qolaversa, yer uchastkalari, bo'sh turgan binolarni ajratish tartibini ham soddalashtirish lozim. Masalan, erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshiriladigan loyihalar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ma'muriy kengash tomonidan ko'rib chiqiladi. Shu paytgacha bu kengash 17 vazirlik va idoradan iborat edi. Prezident ko'rsatmasiga muvofiq, ularning soni 4 ta etib belgilandi. Shu bilan birga, yangi tizim — hududiy komissiyalar tashkil etilib, ularning loyihalarni ko'rib chiqish va ruxsat berish huquqlari kengaytirildi. Bundan tashqari, hukumat tomonidan imtiyozlar yaratiladi. Iqtisodiy zonalarda joylashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish mezoni qayta ko'rib chiqilib, ishtirokchilarga kredit ajratishni yaxshilash hamda muhandislik ta'minoti vositalari bilan ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinadi. Boshqa qator muammolar ham mavjudki, ular ishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Masalan, ayrim erkin iqtisodiy zonalarda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish va ishlab chiqarish infratuzilma obyektlarini qurish bilan bog'liq masalalar haligacha oxiriga

yetkazilmagan. Bu investorlarni jalb qilishda qiyinchiliklar tug'diryapti. Erkin iqtisodiy zonalar direksiyalari tomonidan tijorat banklariga yangi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish yuzasidan taklif kiritish bo'yicha yetarlicha tashabbus ko'rsatilmayapti. Shu bois, mavjud erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat, shuningdek, farmatsevtika zonalarida faoliyat yuritayotgan, eksportga mahsulot chiqarayotgan, innovatsion, yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni tashkil qilgan biznes subyektlari va tadbirkorlarga berilayotgan qo'shimcha imkoniyatlar, imtiyoz va preferensiyalarning tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlash ham muammolardan biridir. Ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakat investitsiya salohiyatini jahon biznes hamjamiyatiga to'la namoyon etishga qaratilgan, sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini shakllantirishda kompleks yondashuvlarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishga e'tibor qaratilishi zarur. Shu bilan birga, "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonunni bugungi kun talablari asosida qayta ko'rib chiqish, uni davr ruhiga uyg'un holda yanada takomillashtirish lozim.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy hudud (EIH)larning tashkil etilishi ko'payib, rivojlanishi tobora kengayib bormoqda. Bu esa dunyo mamlakatlari orasida EIHlarni tashkil etish ko'lami va turlarining yildan-yilga ortib borishiga sabab bo'lmoqda. EIHlarning tashkil etilishi va rivojlanishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatsa-da, ular ichida tashkil etilgan EIHlar faoliyati samaradorligining jahon iqtisodiyoti va alohida davlat iqtisodiyoti o'sish darajasidan ham bir necha barobarga yuqori ekanligini alohida keltirib o'tish lozim. Jumladan, "EIHlarda foyda me'yori o'rtacha 25-30 %ni, Osiyodagi EIHlarda 35-40 %dan yuqorini tashkil etadi. Mazkur hududlarda kapital qo'yilmalarning qoplanish muddati 2-3 martaga qisqa hisoblanadi. Odatda, kiritilgan mablag'lar 3-3,5 yilda qoplansa, bunday qo'yilma me'yordagi hisoblanadi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda EIHlar orqali ular iqtisodiyotiga jami xorijiy investitsiyalarning 30 %dan 80 %gacha qismi kirib keladi" 1 . Shu jihatdan O'zbekistonda ham so'nggi yillarda milliy iqtisodiyotni, uning tarmoqlari va hududlari orqali rivojlantirishd EIHlarni tashkil etish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada oxirgi vaqtlarda amalga oshirilayotgan islohotlar endilikda o'z samarasini berayotganligi bilan g'oyatda ahamiyatli hisoblanadi. Mazkur islohotlar ijrosi va samaradorligini yanada oshirishda ushbu sohada samarali faoliyat ko'rsata oluvchi mutaxassislarning mavjudligi va yetarliligini ta'minlash muhim vazifalardan hisoblanadi. Xususan, EIHlarni tashkil etish va rivojlantirishda investitsiyalar, jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati yuqoriligidan kelib chiqib, milliy

iqtisodiyotning EIHLar faoliyati va ularga jalb etiluvchi xorijiy investitsiyalar orqali jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyasini faollashtirishga xizmat qiluvchi malakali, zamonaviy bilimga ega, raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyoj bugungi kunda tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda va ortib bormoqda. Shunga muvofiq, bugungi kunda respublikamizda mazkur sohaga oid zamonaviy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan, milliy va jahon iqtisodiyoti integratsiyasini jadallashtirishda muhim o'rin tutuvchi zamonaviy kadrlarni tayyorlash yo'lga qo'yilgan bo'lib, hozirgi vaqtda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlanmoqda. Ularga esa mutaxassislik fani sifatida "Erkin iqtisodiy hududlar" fanining o'tilishi yuqorida qayd etib o'tilgan dolzarb vazifa yechimida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. XX asrning ikkinchi yarimlaridan boshlab erkin iqtisodiy hudud (EIH) xalqaro iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib kelmoqda. Jahon xo'jaligi aloqalarida erkin iqtisodiy hudud xalqaro tovaralmashinuvining faollashuvi, investitsiyalar mobilizatsiyasi, ish bilan bandlik darajasini o'sishi hisobiga iqtisodiy o'sish ko'rsatkichini tezlashtiruvchi omil sifatida qaralmoqda. Shu sababdan bugungi kunga kelib dunyo miqyosida EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishga bo'lgan e'tibor, munosabat tobora ortib bormoqda. Jumladan, ayni vaqtga kelib O'zbekiston Respublikasida ham mavjud 14 ta hududning 12 tasida 21 ta EIHLar tashkil etilishiga asos solingan bo'lib, ularning huquqiy asoslari ishlab chiqilgan. Jahon amaliyoti tajribasi shuni ko'rsatadiki, EIHLar milliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan birgalikda, ishlab chiqarishga yangi, energiyatejamkor, zamonaviy yuqori texnologiyalarni olib kirish, ilg'or xorijiy menejment va marketing tajribalaridan foydalanish, yangi ishlab chiqarishlar evaziga ichki bozorni import o'rnini bosuvchi tovarlar bilan to'ldirish, mamlakat eksport salohiyatini yanada oshirish, tashqi savdoni rivojlantirish, hududlarda yangi ish o'rinlari yaratish, valyuta tushumlari kirib kelishini ko'paytirish, oltin-valyuta zahirasi hajmini oshirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, milliy valyuta barqarorligini mustahkamlash, Davlat budjeti daromadlarini oshirish va pirovardida, milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va xalqaro raqobatbardoshligining yanada kuchayishiga keng yo'l ochib beriladi hamda unga xizmat qiladi. Dunyo miqyosida turli davlatlarda tashkil etilgan va etilayotgan EIHLar sonining ortib borishi va EIHLarga ega davlatlar sonining ham ortib borishi (bugungi kunga 9 kelib, ularning soni 140 dan oshdi) ushbu EIHLarning o'zi nima, uning ahamiyati, muhimligi va samaralari, afzalliklari haqida yetarlicha tushuncha, tasavvur va bilimga ega bo'lish zaruriyatini kuchaytirib bormoqda. Shu sababdan ushbu masalaga jiddiy yondashish uni alohida fan sifatida o'rganish darajasiga ham olib

chiqdi. Bu esa mazkur “Erkin iqtisodiy hududlar” fanini o‘zlashtirishda, eng avvalo, EIHLarning mazmun-mohiyatini yaxshi o‘rganish, bilish va u haqda yetarlicha tushunchaga ega bo‘lishni taqozo etadi. Erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini jahon fanida chuqur va har tomonlama o‘rganish XX asrning 70 yillarida boshlandi. Hozirgi zamon ilmiy adabiyotida, mamuriy hujjatlarda, amaliyotda, erkin iqtisodiy hududlarni bildiruvchi xilma-xil atamalar qo‘llashadi: “Erkin iqtisodiy hudud”, “Texnologik hudud”, “Erkin bojxona hududi”, “Maxsus iqtisodiy hudud”, “Erkin tadbirkorlik hududi”, “Erkin eksport hududi”, “Erkin savdo hududi”, “Bojsiz hudud”, “Qo‘shma tadbirkorlik hududi”. XX asrning 80 yillarida erkin iqtisodiy hududlarning 20 ta, o‘tgan asrning 90 yillarida 30 ta shakli bor deb hisoblaganlar. Ba‘zi hozirgi iqtisodiy adabiyotlarda EIHLarni tavsiflovchi 40 dan ortiq atamalar borligi ham keltirib o‘tilgan. Bugungi kunga qadar EIHLar mazmun-mohiyatini yoritish, EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishga doir xorijiy va mahalliy iqtisodchi-olimlar, mutaxassislar tomonidan turli tadqiqotlar olib borilgan va shuning natijasida ko‘plab ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiya ishlari, risolalar, o‘quv adabiyotlar hamda o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratilgan. Biroq, olib borilgan o‘rganishlar EIHLar tushunchasiga xorijiy va mahalliy iqtisodchi-olimlar, mutaxassislar tomonidan berilgan turli ta‘rif va talqinlar mazkur atamaning yagona ta‘rifga ega emasligini, uning mazmuniga har bir mutaxassis o‘z nuqtai nazari, bilim va faoliyat olib borish sohasiga asoslanib ta‘rif berishganligini ko‘rsatadi. Erkin iqtisodiy hududni hududiy xo‘jalik jihatidan ham qadimiy, ham zamonaviy deb atash mumkin. Ularning ildizi qadim o‘tmishga borib taqaladi, va mana shu vaqtning o‘zida o‘z amaliy faoliyatini zamonaviy rivojlanishda boyitadi. Amerikalik olimlar M.Fraze va R.Renalar fikricha, “erkin iqtisodiy hudud – bu iqtisodiy rivojlanish yo‘lidagi insoniyatning eng qadimgi va va shu bilan birga eng zamonaviy g‘oyalaridan biridir” 4 . Rus olimi I.P.Fominskiy rahbarligi ostida chiqqan o‘quv qo‘llanmada 5 erkin iqtisodiy hududlarga ushbu mamlakatda qabul qilingan umumiy xo‘jalik faoliyati tartibiga nisbatan imtiyozlar beruvchi ma‘lum bir hudud deb ta‘riflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-apreldagi “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. 2016-yil 20-yanvar. O‘RQ-400- son.

4. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi "Davlat bojxona xizmati to'g'risida" gi yangi tahrirdagi Qonuni.
5. AQShda 1934-yilda qabul qilingan "Tashqi savdo hududlari to'g'risida"gi Qonun.
6. Belarus Respublikasining 1998-yil 7-dekabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi 213-Z-sonli Qonuni.
7. Rossiya Federatsiyasining 2005-yil 22-iyuldagi "Rossiya Federatsiyasi hududidagi erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi №116-FQ-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 21-dekabrdagi PQ-1446-sonli Qarori.